



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	

UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI SINFDAN TASHQARI FAOLIYAT ORQALI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK TIZIMI

UDK: 37.017.4:355.233.231.1

Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna
Mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0000-4939-3499

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarining 10–11-sinflarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Milliy va xorijiy manbalar tahlili asosida mazkur tarbiya turining to'rt komponentdan iborat tuzilmasi asoslangan. Muallif tomonidan to'rt bosqichli pedagogik-metodik tizim ishlab chiqilib, uning maqsadli, mazmuniy, texnologik, tashkiliy va natijaviy bloklari tavsiflangan. Tizimning samarali amal qilishini ta'minlaydigan beshita pedagogik shart-sharoit aniqlangan hamda tarbiyalanganlikni baholashning to'rt mezon va o'n ikki ko'rsatkichdan iborat apparati taklif etilgan.

Kalit so'zlar: harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, sinfdan tashqari faoliyat, pedagogik-metodik tizim, komponentli tuzilma, o'quvchi subyektligi, mudofaa ongi, tarbiyalanganlik mezonlari.

Abstract: The article examines the problem of improving military-patriotic education among 10th–11th grade students of general secondary schools through extracurricular activities. Based on the analysis of national and international sources, a four-component structure of this type of education is substantiated. The author proposes a four-stage pedagogical-methodological system comprising target, content, technological, organisational and outcome blocks. Five pedagogical conditions ensuring its effective functioning are identified, and an assessment apparatus consisting of four criteria and twelve indicators is presented.

Key words: military-patriotic education, extracurricular activity, pedagogical-methodological system, component structure, learner agency, defence awareness, criteria of upbringing.

Аннотация: В статье исследуется проблема совершенствования военно-патриотического воспитания учащихся 10–11 классов общеобразовательных школ посредством внеурочной деятельности. На основе анализа отечественных и зарубежных источников обоснована четырёхкомпонентная структура данного вида воспитания. Разработана четырёхэтапная педагогически-методическая система, определены педагогические условия её реализации и критериальный аппарат оценки.

Ключевые слова: военно-патриотическое воспитание, внеурочная деятельность, педагогически-методическая система, компонентная структура, субъектность учащегося, критерии воспитанности.

KIRISH

Yosh avlodni Vatanga sadoqat va uni himoya qilishga tayyorlik ruhida tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinflarida "Chaqiruvgacha boshlang'ich tayyorgarlik va vatanparvarlik tarbiyasi" fanining o'qitilishi mazkur yo'nalish uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maktab amaliyotini kuzatish tarbiyaviy ishning asosan dars mashg'ulotlari va sanaga bag'ishlangan tadbirlar doirasida cheklanib qolayotganini ko'rsatmoqda.

Muammoning dolzarbligi quyidagi qarama-qarshiliklarda namoyon bo'ladi: davlat va jamiyatning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga bo'lgan yuqori ijtimoiy buyurtmasi bilan uni maktabda tizimli tashkil etishning metodik ta'minoti yetishmasligi o'rtasida; sinfdan tashqari faoliyatning katta tarbiyaviy salohiyati bilan undan tarqoq foydalanilishi o'rtasida; tarbiya natijasini baholash zaruriyati bilan aniq mezonlarning ishlab chiqilmaganligi o'rtasida. Tadqiqotning maqsadi – umumta'lim maktablarining 10–11-sinflarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimini nazariy jihatdan asoslash va ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoga oid manbalarni to'rt yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish – harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tizimli talqini. A. N. Vyrshikov va M. B. Kusmartsev mazkur tarbiya turini davlat dasturlari asosida amal qiladigan yaxlit tizim sifatida tavsiflaydilar va uning tarkibiy bloklarini ajratadilar ^[1]. V. I. Lutovinov ishlarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik jihatlari o'rganilgan ^[2]. Ushbu tadqiqotlar tizimlilik nuqtai nazaridan qimmatli bo'lsa-da, ularda o'quvchining qadriyatli tanloviga yetarlicha e'tibor qaratilmagan hamda tadqiqotlar boshqa ta'lim tizimi sharoitida olib borilgan.

Ikkinchi yo'nalish – fuqarolik va vatanparvarlik ta'limining zamonaviy konseptual yondashuvlari. J. Westheimer va J. Kahne fuqaroning uch tipini farqlab, ta'lim maqsadi qaysi tipni shakllantirishga qaratilganini aniqlashtirish zarurligini asoslaydilar ^[3]. M. Hand vatanparvarlikni bahsli qadriyat sifatida talqin qilib, uni tanqidiy muhokamasiz singdirishning axloqiy chegaralarini muhokama qiladi ^[4]. E. Callan siyosiy ta'limning liberal jamiyatdagi vazifalarini tahlil qiladi ^[5], S. Ben-Porath esa ziddiyat sharoitlarida fuqarolik ta'limi mazmunining soddalashib ketish xavfini ko'rsatadi ^[6]. Bu qarashlar milliy sharoitga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilmasa-da, tarbiyaviy jarayonda refleksiya bosqichini ta'minlash zarurligiga e'tiborni qaratadi.

Uchinchi yo'nalish – tarbiya metodikasi va sinfdan tashqari faoliyat pedagogikasi. N. Ye. Shchurkova tarbiyaviy texnologiyalarning mazmuni va o'quvchi bilan pedagogik o'zaro ta'sir masalalarini ishlab chiqqan ^[7]. A. V. Mudrik ijtimoiylashuv jarayonida tarbiyaviy muhitning rolini asoslagn ^[8]. Milliy pedagogikada tarbiyaning milliy asoslari va tarbiyaviy ish metodikasi masalalari M. Qurinov, U. Mahkamov, B. Ziyomuhammadov, J. Yo'ldoshev, R. Safarova, Sh. Sharipov, N. Muslimov kabi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan ^[9; 10].

To'rtinchi yo'nalish – ilk o'spirinlik yoshi psixologiyasi. 10–11-sinf o'quvchilarida qadriyatlar tizimining shakllanishi, o'zini o'zi belgilash va mustaqillikka intilish jarayonlari E. G'oziyev, M. Davletshin ishlarida tahlil qilingan ^[11]. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining umumiy nazariy masalalari va sinfdan tashqari faoliyatning pedagogik asoslari alohida-alohida yetarlicha o'rganilgan. Biroq umumta'lim maktabining 10–11-sinflarida ushbu ikki masalani birlashtiruvchi yaxlit pedagogik-metodik tizim maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan. Ushbu ilmiy bo'shliq tadqiqotning yo'nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, faoliyatli va aksiologik yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi. Tizimli yondashuv tarbiyaviy jarayonni o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida qarash, faoliyatli yondashuv esa qadriyatning real harakat orqali o'zlashtirilishini ta'minlash imkonini beradi. Aksiologik yondashuv vatanparvarlikni shaxs qadriyatlar tizimidagi o'rni nuqtai nazaridan tahlil qilishga xizmat qiladi. Maqolada nazariy tadqiqot usullari qo'llanilgan: ilmiy-pedagogik va me'yoriy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, modellash-tirish va umumlashtirish.

Taklif etilayotgan tizimning empirik jihatdan tekshirilishi keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari doirasida amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining komponentli tuzilmasi. Manbalar tahlili asosida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini o'quvchida Vatanga qadriyatli munosabat, mudofaa ongi va uni himoya qilishga irodaviy hamda amaliy tayyorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli pedagogik jarayon sifatida ta'riflaymiz. Uning tarkibida to'rtta komponent ajratiladi: kognitiv, emotsional-qadriyatli, irodaviy-mudofaaviy va faoliyatli. Taklif etilayotgan tuzilmaning mavjud tasniflardan farqi – irodaviy-mudofaaviy komponentning mustaqil tarkibiy qism sifatida ajratilishidir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchi bilimga ega bo'lishi, milliy g'ururni his qilishi va tadbirlarda qatnashishi mumkin, ammo shaxsiy javobgarlikni qabul qilish hamda qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik shakllanmagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Aynan shu jihat harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini umumiy vatanparvarlik tarbiyasidan farqlaydi.

Sinfdan tashqari faoliyatning pedagogik imkoniyatlari. Sinfdan tashqari faoliyat dars jarayonidan beshta parametr bo'yicha farqlanadi: ishtirokning ixtiyoriyligi, mazmunning variativligi, o'quvchining subyektlik pozitsiyasi, muloqotning norasmiyligi va natijaning shaxsiy tajriba shaklida namoyon bo'lishi. Aynan shu xususiyatlar mazkur faoliyat turini vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish uchun qulay muhitga aylantiradi, chunki qadriyat tashqaridan uzatilmaydi – u faqat shaxsiy tajriba orqali ichki qabul qilinadi. Sinfdan tashqari faoliyat shakllarini tarbiyaviy vazifasiga ko'ra to'rt guruhga ajratish taklif etiladi: axborot-bilim beruvchi, hissiy-qadriyatli,



amaliy-tayyorgarlik va ijtimoiy-faoliyatli shakllar. Ushbu guruhlar tarbiyaning to'rt komponentiga muvofiq keladi, bu esa yillik rejalashtirishda muvozanatni nazorat qilish imkonini beradi.

Pedagogik-metodik tizimning tuzilmasi. Ishlab chiqilgan tizim besh blokdan iborat: maqsadli (ijtimoiy buyurtma va tarbiya maqsadi), mazmuniy (to'rt komponent bo'yicha tarbiyaviy mazmun), texnologik (bosqichlar, metod va shakllar), tashkiliy (subyektlar hamkorligi) va natijaviy (mezonlar, darajalar, diagnostika) bloklar.

Tizimning texnologik yadrosini to'rt bosqich tashkil etadi.

1-jadval: Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik-metodik tizimi bosqichlari

Bosqich	Vazifasi	Yetakchi faoliyat shakllari
I. Motivatsion-yo'naltiruvchi	Qiziqish uyg'otish, shaxsiy ma'no izlashga undash	Muammoli suhbat, uchrashuv, kirish diagnostikasi, faoliyat yo'nalishini birgalikda tanlash
II. Bilim-boyituvchi	Kognitiv komponentni shakllantirish	Muzey darslari, izlanish-ekspeditsiya ishlari, hujjatli material tahlili, oilaviy tarix loyihalari
III. Faoliyat-tajribaviy	Irodaviy-mudofaaviy va faoliyatli komponentlarni rivojlantirish	Harbiy-sport o'yinlari, amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy foydali mehnat, tengdoshlar uchun tadbir tashkil etish
IV. Refleksiv-baholovchi	Tajribani anglash, qadriyatni ichki qabul qilish	Refleksiv suhbat, portfolio himoyasi, o'zini o'zi baholash, yakuniy diagnostika

Bosqichlar ketma-ketligi tasodifiy emas: u bilim – hissiyot – harakat – refleksiya mantiqiga asoslanadi. Refleksiv bosqichning majburiy tarzda kiritilishi tizimning muhim jihati hisoblanadi, chunki aynan shu bosqichda tashqi faoliyat ichki qadriyatga aylanadi.

Tizimni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari. Sinfdan tashqari faoliyatning epizodik tadbirlar emas, balki bosqichli tizim sifatida loyihalanishi; o'quvchining faoliyat mazmunini tanlash, rejalashtirish va natijani baholashda ishtirok etishi; tarbiyaviy mazmunning mahalliy tarixiy-madaniy materialga tayanishi; "maktab – oila – mahalla – harbiy qism" hamkorligining muntazam va mazmunli tashkil etilishi; pedagoglarning mazkur yo'nalishdagi metodik tayyorgarligini ta'minlash.

Tarbiyalanganlikni baholash mezonlari. Tizimning natijaviy bloki to'rt mezon va o'n ikki ko'rsatkichdan iborat. Har bir mezon tarbiyaning tegishli komponentiga muvofiq keladi va uch darajali (yuqori, o'rta, past) shkala bo'yicha baholanadi.

2-jadval: Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostik vositalari

Mezon	Ko'rsatkichlar	Diagnostik vosita
Kognitiv	Tarixiy bilim; huquqiy bilim; tushunchani mustaqil izohlay olish	Bilim testi, ochiq savolli so'rovnoma
Emotsional-qadriyatli	Milliy g'urur; ramzlarga munosabat; qadriyatlar iyerarxiyasidagi o'rin	Qadriyatlar ranjirovkasi, projektiv topshiriq
Irodaviy-mudofaaviy	Burchni qabul qilish; qiyinchilikni yengish tayyorligi; tayyorgarlikka intilish	Vaziyatli topshiriq, o'zini baholash shkalasi
Faoliyatli	Ixtiyoriy ishtirok; tashabbuskorlik; ijtimoiy foydali faoliyat	Kuzatuv kartasi, ekspert bahosi

XULOSA

O'tkazilgan nazariy tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi to'rt komponentning – kognitiv, emotsional-qadriyatli, irodaviy-mudofaaviy va faoliyatli komponentlarning – uzviy birligi sifatida namoyon bo'ladi. Irodaviy-mudofaaviy komponentni mustaqil ajratish mazkur tarbiya turining o'ziga xosligini aks ettiradi. Sinfdan tashqari faoliyat o'zining ixtiyoriyligi, variativligi va o'quvchining subyektlik pozitsiyasini ta'minlashi bilan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqilgan pedagogik-metodik tizim besh blok va to'rt bosqichdan iborat bo'lib, uning refleksiv-baholovchi bosqichi tarbiyaviy natijaning barqarorligini ta'minlaydigan hal qiluvchi element hisoblanadi.

Taklif etilgan mezonlar apparati tarbiyaviy ish natijasini komponentlar kesimida baholash va tarbiyaviy jarayonga o'z vaqtida tuzatish kiritish imkonini beradi. Tadqiqotning keyingi bosqichida ishlab chiqilgan tizimning samaradorligi umumta'lim maktablari sharoitida tajriba-sinov ishlari orqali tekshiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вырщиков А. Н., Кусмарцев М. Б. Патриотическое воспитание молодёжи в современном российском обществе. – Волгоград, 2006.
2. Лутовинов В. И. Военно-патриотическое воспитание молодёжи: проблемы и пути решения. – Москва.
3. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. – 2004. – Vol. 41, No. 2. – P. 237–269.
4. Hand M. Patriotism in Schools. – London: Philosophy of Education Society of Great Britain, 2011.
5. Callan E. Creating Citizens: Political Education and Liberal Democracy. – Oxford: Clarendon Press, 1997.
6. Ben-Porath S. Citizenship under Fire: Democratic Education in Times of Conflict. – Princeton: Princeton University Press, 2006.
7. Щуркова Н. Е. Педагогическая технология. – М.: Педагогическое общество России.
8. Мудрик А. В. Социальная педагогика. – М.: Академия.
9. Quronov M. Tarbiya. – Toshkent.
10. Mahkamov U. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent.
11. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent.
12. "Chaqiruvgacha boshlang'ich tayyorgarlik va vatanparvarlik tarbiyasi" fani o'quv dasturi. – Toshkent.
13. Nussbaum M. Patriotism and Cosmopolitanism // For Love of Country? – Boston: Beacon Press, 1996.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.